

O'zbekiston Respublikasi
Ona yurti - oltin beshig

TONG yulduzi

№ 18
(66455)

2004 yil
3 may - 9 may

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

SOG'INCH

(Bobom Fazliddin
Shamsiyev xotirasiga)

Shamollarda hilpirayli guldor ro'molim,
Surxondaryo tomonlarga oqli xayolim.
Sabolarga so'zlayapman farishon holim,
Jon tomirim bobojonim, sog'indim Sizni.

Darvozani asta chertgan o'sha shamolmi?
Keldim deya shivirlagan pok ruh xayolmi?
Endi sizni ko'rolmaslik dilda malolmi?
Qallda armon bobojonim, sog'indim Sizni.

Yaxshi bir nom qoldirdingiz siz o'zingizdan,
Udam qadam bosmoqlamiz gul izingizdan,
Ma'nolarin bir-bir terjum dur so'zingizdan,
Mehribonim bobojonim, sog'indim Sizni.

Sabohat IKROMOVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi

51-maktabning 9- «V» sinf o'quvchisi.

9-may - Xotira va qadrlash kuni



Biz yordamga muhtoj insonlardan ko'magimizni ayamaymiz, o'ksik qalblar ko'nglini imkon qadar ko'tarishga intilamiz. Mazkur yilimizning «Mehr va muruvvat yili» deb nomlanishi bizni xayrli ishlarni yanada ko'proq qilishga undaydi.

«Kamolot»

Yoshlar Ijtimoiy
Harakati Toshkent
shahar bo'limi
Kengashi tomonidan

poytaxtimizning Hamza tumanida joylashgan 30-, hamda Yunusobod tumanida joylashgan 31 - Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari huzurida bo'ldik va u yerdagi bolajonlar bilan tezda do'stlashib oldik. Xayrlashish onlari yaqinlashganda yangi do'stlarimizning biroz ma'yus tortib qolganlarini ko'rib, to'g'risi mening ham ko'nglim bo'shab, ko'zimga yosh kelib ketdi. Yo'lda ketyapman-u hamma narsasi bisyor, shart-sharoitlari

m u h a y y o
bo'lsa-da,
ota-ona
mehriga zor
bo'lib
ulg'ayayotgan

maslahatlar berishdi.

Baxtiyorlik

O'quvchilarning devorga chizgan rasmlarini havas bilan tomosha qilib, shahrimizning naqadar go'zal ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Eng chiroyli rasm chizgan ishtirokchilar munosib taqdirlandilar.

Kengashimizning ajoyib bir anansi bor: Kunlar biroz ilishi bilanoq hasharlarni boshlab yuboramiz. Tozalash ishlarini Kengashimiz binosi hovlisidan boshladik. 100 dan ziyod sardorlar va faollar g'ayrat qilib, hovlimizni chiqindilardan tozaladik. Chiroyli gullar ekib, uni gulzorga aylantirdik. Atrofni o'zimiz yasagan turli shakllar,

ham bu borada talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti.

Yaqinda biz -Sardorlar Kengashi a'zolari Sobir Rahimov tumanida joylashgan «Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati»ga borib, u yerdagi mehrga muhtoj nuroniyalarimiz holidan xabar oldik. Qariyalarga o'zimiz yasagan tabriknomalarni, gullarni taqdim etdik, o'z qo'llarimiz bilan tayyorlagan shirinliklar bilan mehmon qildik, sovg'a-salomlar ulashdik. Ko'rsatgan arziyasahovatimizdan boshi ko'kka yetgan qariyalarimiz bizdan astoydil minnatdor bo'lib, haqqimizga duo qilishdi.

Kuni kecha esa O'zbekiston Respublikasi Davlat Konservatoriyasining faol qo'shiqchi talabalari bilan birgalikda

tengdoshlarimning mungli nigohlari ko'z oldimdan ketmasdi...

Bir oy davomida

poytaxtimiz bo'ylab o'tkazilgan «Toshkent yoshlar nigohida» nomli devorga rasm chizish aksiyasi uning 1100 nafar qatnashchilari hamda ko'p sonli tomoshabinlari yodida uzoq saqlanib qolishi aniq. Yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ular qalbida ona shahrimizga nisbatan mehr uyg'otish, qolaversa, mahoratlarini yanada oshirish maqsadida uyushtirilgan mazkur tadbirda ommaviy axborot vositalari xodimlari, tuman Ichki Ishlar Boshqarmasining yo'l harakati xavfsizligi xodimlari, tibbiyot birlashmasi vakillari ishtirok etib, bolajonlarga kerakli

TOBLANAYOTGANLAR

bayroqchalar va sharlar bilan bezatdik...

Ko'plab hasharlar, tadbirlar uyushtirsak-da, charchash nimaligini bilmaymiz. Chunki qilayotgan ishlarimizning xayrli ekanligidan, shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shishdek savobli ishga oz bo'lsa-da, o'z hissamizni qo'shayotganimizdan, qolaversa, juda ko'plab tengdoshlarimizning ortimizdan ergashayotganliklaridan baxtiyormiz.

Rustam SHOIMQULOV,
Toshkent shahar «Kamalak» bolalar tashkiloti qoshidagi matbuot markazi rahbari.

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Maktabimiz «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati qoshidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti bolalarni o'z saflarida jamlabgina qolmay, ularni xayrli ishlarga ham yo'naltiradi.

Yaqinda biz - bir guruh tashkilot a'zolari maktabimiz hududida istiqomat qiluvchi urush qatnashchisi Mahammad ota Boboxo'jayevning xonadonida bo'ldik. Otaxon urush xotiralaridan so'zlarkanlar, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Janglarda mardlarcha halok bo'lgan safdoshlarini eslab, ularning haqiga duo o'qidilar.

Nafaqat oila a'zolari, balki butun mahalla ahli ardog'idagi otaxon biz kichkintoylarning tarbiyamiz uchun ham befarq emaslar. «Bolalarim, biz siz uchun, sizning tinch, osoyishta hayotingiz uchun kurashdik. Shunday ekan, bu faraxbaxsh kunlarning qadriga yetinglar. O'ynab-kuling va yaxshi o'qing», deya nasihat qiladilar doim.

Tarixdan, kechagi kunimizdan jonli guvohlik beruvchi bunday uchrashuvlar, suhbatlar biz uchun juda foydalidir.

Hilola USMONXO'JAYEVA,
Toshkentdagi 38 - maktabning
4 - «B» sinf o'quvchisi.

ESLAYMIZ, YODGA OLAMIZ

Oltinko'l tumanidagi Qo'shtepasaroy qishlog'ida Ikkinchi Jahon urushida qatnashib, g'alaba bilan yurtimizga qaytgan «Shuhrat» ordeni nishondori Yo'ldoshboy Ergashevni doimo yodga olamiz. Uning Vatanimiz ozodligi, yurtimiz obodligi uchun mardonavor jang qilib, mislsiz jasorat ko'rsatgani haqida ko'pincha quoldosh do'stlari hikoya qilib berardi. Ustoz hozirgi 31-o'rta maktabda bizga saboq bergan edilar. Ularni barcha birdek «Qahramon domla» deb atashardi. Qalbi toza bu inson nafaqat o'zidan yaxshi nom, balki yuzlab shogirdlarni qalbiga ziyo urug'ini sochib ketdilar. Bugungi «Xotira va qadrlash kuni»da Yo'ldoshboy Ergashev kabi oliyjanob insonlarning pok ruhini yodga olamiz. Ular qalbimizda mangu yashaydi.

Matluba aya ISROILOVA,
Andijon viloyati, Oltinko'l tumani.

O'tgan aziz insonlarning xotirasini hamisha qalbimizda saqlaymiz. Ota-bobolarimizni tez-tez esga olib, ularning ruhini duo qilib turgan insonlar o'rtasida mehr-oqibat ko'tarilmaydi. Buvam bizga tez-tez Ikkinchi Jahon urushi davrlarini hikoya qilib beradilar. Bu xotiralarni jon

AJDODLAR XOTIRASI AZIZDIR

qulog'imiz bilan tinglaymiz. Achchiq o'tmish, jangohlarda qurbon bo'lgan jasur insonlar qismati, ularning jasoratlaridan ta'sirlanib, yana bir bora vatan tuyg'usini his etamiz. El ozodligi uchun shahid bo'lgan xalq o'g'lonlari xotirasi hamisha qalbimizda, ularning nomlari tariximizda o'chmas iz qoldiradi. Ajdodlar yodi muborak sanalgan yurtdan doimo farovonlik, totuvlik, mehr-oqibat arimaydi.

Qirq yillik gina ham unutiladi,
Unutilar hatto yurakdagi dard.
Yaxshilar xotiri o'chmas, yuqmas gard,
Unutilmas ular oldidagi qarz.

Dilnoza NUTFULLAYEVA,
Buxoro Davlat Universitetining III-bosqich talabasi.

Biz bolajon xalqmiz. Ikkinchi jahon urushi yillarida har millatli bolalarni asrab, oq yuvib, oq taragan, ularning ko'ngliga qarab, yig'lasa yig'lab, kulsa kulgusiga sherik bo'lgan Shomahmud Shorasulov va Bahri ayalarni eslab ko'ring-a. Ular mashaqqat bilan non topib, bolalari bilan birgalikda baham ko'rishgan. Endi esa Mehribonlik uylaridagi-larini ko'rib, qalbim titrab ketadi. Bolalaridan xavotir olib, yurgan yo'llarida-yu, ishxonalarida ular haqida o'ylab o'tirgan onalar qayda-yu, ulardan tezroq qutulish

MEHRIBONLIK UYLARI O'YLATADI ODAMNI

maqsadida gohida axlat qutilariga, gohida darvozalar tagiga tashlab ketayotgan onalar qayoqda? Agar shunday onalar-u otalar bo'lmaganida Bolalar uylarining tashkil bo'lishiga hojat qolmagan bo'lardi. Sahovatpesha insonlar bolalarni o'z tarbiyalariga olmoqdalar, lekin o'z ota-onasi bo'lishiga nima yetsin?

Maqsadim, bolalarning ko'ngillari vayron bo'lmasin, Mehribonlik uylari kamaysin.

Shohruh ABDULLAYEV,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, Oqsoy qishlog'idagi 63-maktabning
8-sinf o'quvchisi.

...SAMOLARGA KETGAN OTAM

Otajanim sog'inib, sizni uzoq esladim,
Tushlarimda sizni ko'rib, achchiq-achchiq bo'zladim.
Yurti uchun jonin fido qilgan otam,
Qo'lim yetmas samolarga ketgan otam.

Oyga qo'ysam, o'ning gardi urar degan,
Yerga qo'ysam, yerning changi qo'nar degan.
Farzandiga jonin fido etgan otam,
Qo'lim yetmas samolarga ketgan otam.

Men dard cheksam, uning qalbi g'amga
to'lgan,
Sog'ayishim ko'rish esa armon bo'lgan.
Vatan uchun jonin fido etgan otam,
Qo'lim yetmas samolarga ketgan otam.

Nodira MAJIDOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
70 - maktabning
4 - «A» sinf o'quvchisi.

BOLALIK

Biz bolalar, bolalar,
Tashvish nima bilmaymiz.
Tog'da o'sgan lolalar,
Faqat o'ynab-quvnamiz.

Eh, qanday soz bu damlar,
Har kun quvonchli, totlik.
O'tgan kunni sezmaymiz,
Buncha shirin bolalik.



YOMG'IR

Yomg'ir yog'ar tomchilab,
Qochar qarg'a bulutlar.
Osmonda na qushlar bor,
Na uchadi burgutlar.

Oh, qandayin yomg'ir soz,
Toza qilar olamni.
Mavsumda ko'p-ko'p yog'ib,
Yashnataver dalamni.

Fotima HAKIMOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
14-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

UKAMGA

Jajjigina ukam bor,
U hammaga mehribon.
Hali kichik bo'lsa ham,
Kattalardek zehni bor.

Chaqnab turgan ko'zlari,
Xuddi mitti munchoqdek.
Bafhamizga qo'ng'iroq,
Chitroyli qo'stira o'qdek.

Xullus gapning qisqasi,
U uyimiz erkasi,
Eng katta tilagimiz -
Portloq bo'lsin ertasi!

Nigora ALIMHAMMADOVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
96 - o'rta maktabning
6 - «B» sinf o'quvchisi.

«YONG'OQZOR»NING UMIDLARIMIZ

Bizning 20 ta xo'jalik istiqomat qiladigan yangi mahallamiz shunday deb nomlanadi. Har bir uyning oldida mevali daraxtlar bor, biz ularni mehr bilan parvarishlaymiz. Ko'chamizni ozoda saqlaymiz. Ariqchadan oqayotgan suv esa mahallamizga obodlik, yashnatuvchanlik bag'ishlab turadi. Hademay yozgi ta'tilga ham chiqib olamiz. Miriqib dam olishimiz uchun ota-onalarimiz bizga yana bir imkoniyat yaratib berishdi. Bu - sport maydonchasidir. To'g'ri, maydonchamizni juda zo'r deb bo'lmaydi. Lekin u yerda futbol, voleybol, gandbol o'ynashimiz mumkin. O'tlar ustida o'tirib olib, shaxmat-shashka o'ynaymiz. Tomoshabinlarimiz - ota-onalarimiz bo'lishadi. Ana shunaqa gaplar. Eng asosiysi biz inoq va ahil yashaymiz. Ayniqsa, sport maydonchasi uchun joy ajratilganidan buyon do'stligimiz yanada mustahkamlandi. Epchillig-u chaqqonligimizni ko'rgan onalarimiz, «Yong'oqzor»imizdan ham chempionlar chiqadi shekilli, deb xursand bo'lmoqdalar.

Rustamjon MALLAYEV,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi
1 - iqtisodiy bolalar maxsus maktabining
3 - sinf o'quvchisi.

TINCHLIK BO'LSIN!

Orzu, istak, maqsadimiz yagona,
Tinchlik bo'lsin shu muqaddas dunyoda.
Sadoqatli o'g'illarmiz, qizlarmiz,
Vatanimiz kelajagi bizlarmiz.

Uyimiz tinch, mahallam tinch, yurtim tinch,
Ajdodlarim ozodlikka qo'ygan sinch.
Biz o'qiyamiz, o'rganamiz dunyoni,
Quyosh ko'kdan sochar ekan ziyoni.

Kelajakning tonglarimiz munavvar,
Yashayapmiz, gul kabi sochib anbar.
Vatanimga ko'z tikmasin begona,
Maqsadimiz tinchlik bo'lar yagona.

Madhiya ABDURAHMONOVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi
28-o'rta maktabning 3-sinf o'quvchisi.

Marg'ilon shahridagi 1 - sonli «Mehribonlik uyi»ga xabar keldi: «Kamalak jilosi» Respublika an'anaviy ko'rik-tanlovida Tatyana Kim yuqori o'rinni egalladi.

Telefonda xushxabar aytili va Tatyana Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan g'oliblarni taqdirlash marosimiga taklif qilindi.

Bu yangilik tarbiyachilar-u tarbiyalanuvchilarni shu qadar quvontirib, hayajonlantirdiki, hatto ayrimlarining charaqlab kulib turgan ko'zlaridan duvillab yosh oqardi. Yoshiga nisbatan ancha durkun, vazmin ko'rinadigan Tanyaning yuzlari lovullardi.

Direktor Manzuraxon Hoshimovaning xonasi birpasda gavjum bo'lib ketdi. Sayyora, Niyozbek, Ra'no, Ismoil, Ulug'bek, Murod, Munojot... to'qqiz yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalar, qizlar. Hammasi tasviriy san'at ixlosmandlari. Har birining o'ziga xos ko'ngil olami, hayot-u odamlar haqida tasavvurlari va uni ranglar, nozik chizgilarda aks ettirish qobiliyatlari bor. Lekin bolalar ayni daqiqada qay birlariga dugona-yu do'st, kichkinalarga opadek bo'lib qolgan 9 - sinf o'quvchisi Tatyana Kimning muvaffaqiyatidan behad shod edilar.

-Tanyaning ko'rik-tanlovga yuborilgan «Assalom, Navro'z!» rasmidagi quyosh ajoyib-da, dedi Sayyora Sagatova.- Oftob xuddi olamga bahorni tuhfa qilib, o'ziyam gulchambar taqib olganday chizilgan...

-Menga gullariyam boshqacha tuyulgan: bir



qarasang gulga ham o'xshaydi, yana tarixiy binolarning naqshlariniyam eslatadi,-dedi to'qqiz yoshli Murod Babashev.

-Tarixiy obidalarning naqshlariniyam tabiatdan nusxa olib yaratilgan,- deya kichkintoylarga izoh berdi katta guruh tarbiyalanuvchisi Ismoil Mirzayev.

Bahs qizib ketdi. Faqatgina Tatyana jilmayib o'tirar, o'ziga aka, uka, singildek bo'lib qolgan bolalarning shodligi quvonchiga quvonch qo'shardi. To'g'ri-da, aqlini tanigandan buyon «otam, onam», deb suyangani

«RASMLARIM - MUHABBATIM IFODASI»

«Mehribonlik uyi»ning tarbiyachilari tug'ishganlaridek talashib-tortishib, bitta dasturxonon non-tuz yeb jondoshiga aylanganlar shu yerning tarbiyalanuvchilari bo'ladi. Hattoki yetti yoshga to'lganida qaysi tilda o'qiyman, deb o'ylanib ham o'tirmadi: Sayyora, Abdug'afur, Ulug'bek, Munojot, Ismoililar bilan o'zbek tilida o'qitiladigan 8-maktabga borgan.

Rasm chizishga qachon, nima sababdan qiziqib qolgan, eslolmaydi. Shunisi yodidaki, dars va mashg'ulotlardan bo'sh paytida rasm chizayotgan bolalarning ishini qiziqib tomosha qilayotganida, «Mehribonlik uyi» direktori Manzura Hoshimova:

-Qizim, sening ham rasm chizging kelyaptimi, o'tir,- deb qo'liga qog'oz, rangli qalamlar bergan. Shuning uchun ham u har doim chizgan rasmlarini Manzura opaga ko'rsatadi, maslahatlar oladi...

-Bolalar,-deb hammani o'ziga qarattirdi direktor.

«Baxt-iqbol huquqiga egaman» tanloviga

-Respublika «Sog'lom avlod» xalqaro jamg'armasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, Misr Arab Respublikasining Vatanimizdagi elchixonasi hamkorligida o'tkazib kelinayotgan «Kamalak jilosi» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, sovrindor bo'lgan tarbiyalanuvchilar soni bugun yana bittaga ko'paydi. O'tgan yillarda Robert Kerber, Sayyora Sagatova, Alixon Risbekovlarning ishlari II-, III-darajali Diplomalr, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangani yodingizda bo'lsa kerak. Endi ularning qatoriga Tatyana Kim ham qo'shildi...

«Mehribonlik uyi»dagi barcha qizlar kabi Tatyana ham tikish-bichishni, pishiriqlar tayyorlashni yaxshi biladi. «Yaxshi» va «a'lo» baholarga o'qiydi. Tasviriy san'at vositasida esa barcha his-tuyg'ulari,

orzu-niyatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. O'zining har tomonlama kamolga yetib ulg'ayishi, bag'rini butun etib ulg'aytirayotgan Vatan go'zalliklarini, mustaqil yurt hayotini, mehrlil insonlarni tasvirlashga urinadi. Dilidagi beqiyos minnatdorchilik, muhabbatning bir qatras aks etgan ijodiy ishi bugun shunday yuksak qadrlanib, taqdirlanayotgan ekan... qiz ko'ngil tug'yonlarini so'zda ifodalay olmasdi.

Hali Tanyaning, umuman bu «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilarining qalblarida qanchadan-qancha orzu niyatlar borki, ularni ro'yobga chiqarib, ona-Vatan oldidagi farzandlik burchlarini o'tab, shu yo'lda o'z baxtli taqdirlarini yaratib boradilar, inshoolloh.

Muhtarama ULUG',

Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Surat muallifniki.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Abdullatif Xonzoda begim yoniga o'ltirgach, boshqalar ham o'ltirdilar. Ammo o'rtaga og'ir sukunat cho'kkan edi. Abdullatif onda-sonda ammasiga bir-ikki so'z qotib qo'yardi. Lekin Xonzoda begim ranjigan, nozik iboralar bilan shahzodaga anglatishga urinar edi:

-Samarqand xushhavo, iqlimi yoqimli, Amir Temur saroylari, qasrlar sulton Ulug'bek qurdirgan jomelar, madrasalar-barchasi shinam. Barchasi imorati xayr, shahzodam, Saroy olimlar, hukmdorlarga to'la. A'lo hazrat Samarqandda, Buxoroda yangi madrasalar qurdilar. Hamisha iqbollari baland bo'lsin, ilohim umrlariga baraka berib, panohida saqlasin!

Madrasalar, jomelar dini islom uchundir.

Ammo yangi madrasaning peshtoqiga ne xat bitilmish! Xotinlarni erlariga teng qilmoqchilar shoh Dahriylikka, buzg'unchi ilmlarga yo'l qo'yib o'ltiribdilar,-asabiy, qaltirab so'zlardi Abdullatif. -Ollo taolloning qahriga uchramagaylar, deb qo'rqadurmen.

O'ltirganlar ma'noli qarab oldilar, ammo kimsa churq etolmadi. Bo'zdek oqargan Xonzoda begim Mansur Mirzoga boqdi, u boshini yerdan ko'tarmay jim o'ltirardi.

Alisher hayron, u goh kampirning rangi o'chganini, goh Abdullatifning basharasini, goh majlisdagilarning kayfiyatini kuzatar edi: «Bu shahzoda badqiyofa bo'lganidan dili yomonmi, yohud baddilligidan qiyofasi hunukmi?»

-Podshohi olamning islom dini

uchun jonlari qurbondir,- deya sukutni buzdi kampir.- Islom diniga e'tiqodlari mahkam, shu bilan birga ilm-urfoning ham homiysidurlar.

Abdullatif jahldan bo'zarib ketdi:

-Biz ham she'riyatni, tarixni, falakiyotni sevadurmiz, ammo birinchi o'rinda diniy ilmlarni qo'yimoq lozim. A'lo hazrat ko'p aziz vaqtlarini yulduzlarni sanashga behuda sarf qilmoqdalar. Bu dahriy ilm, tilsimnamo kasbdurkim, ul zot muqarrar g'alat yo'lga qadam qo'ymishlar. Bir haybatli bino qurmishlarki, bu bino tilsimotning mujassamidir, a'lo hazrat falakiyotni, yulduzlarni tomosha qilmoq bilan banddurlar. Ali Qushchi singari

ALISHERNING YOSHLIGI

(Qissa)

dahriylarga qurshilib qolganlar va u binoga qamal bo'lib, allaqanday jadval zij ila muttasil mashg'uldirlar. Ulamo-yu shayxlar, darvishlar esa xoki tuproq bo'lmishlar. Ular podshohga qarshi isyon ko'tarmoq niyatlarini bordirki, kaminaning qon yutib, dilgir yurishimning sababi bundadir.

Ammasi ko'mak so'ragandek majlis ahliga bir qarab oldi.

-Ulug'bek hazratlari tadbiri, odil, xalqqa mehribon, olloga e'tiqodi zo'r, ulug' zotdirlar. Savdo-tijorat masalasida bilgich muhokamador. Hayot osoyishta, shayxlar, ulamolalar tinch, deb o'ylayman.

-Ha, hammasi shovdiragan, puch xayol,-dedi jerkib Abdullatif.



OYBEK

hamisha yig'iladigan yor-u do'stlari she'r, musiqa, ilm-ma'rifat mavzuida maroqli suhbat olib borganlarida, Ulug'bekning ma'rifatparast olim, odil hoqon ekanligi xususida ko'p gap bo'lardi va unga hurmat, zo'r e'tiqod bola qalbida chuqur joylashgan edi. Shuning uchun Abdullatifning otasiga qarshi so'zlari Alisherni, bir tomondan hayratda qoldirsa, ikkinchi tomondan, majlisda sulton va olim ismiga aytilgan ko'p so'zlar bola qalbiga tashvish tug'dirardi. Unda Abdullatifga nafrat, Xonzoda begimga hurmat orta borardi.

El ichra obro'li, e'tiborli, dono, tajribali hisoblangan Rustambek barlos «Uhu, him», yo'talib olgach, gappa aralashdi.

-Sulton Ulug'bek haqida gap bo'lar ekan, kaminaga ijizat beringlar, ul zotning bolaligidan yodimda qolmish bir ajoyib voqeani hikoyat qilay. Bilursizki, sohibqiron bog'lar, qasrlar yaratmishdi. Xotinlari Tuman og'ocha deb- Bog'i bihishtni, To'kalxonimga- Bog'i dilkushoni, nabiralari- Bog'i shamolni barpo qildilar. Bog'i zag'on, Bog'i hamisha bahor... Eh-he... Ishtiyoqu havaslari baland edi xoqonimning...- Barlos bir oz sukutda boshini chayqab turdi.- Bir bahor fasli Bog'i bihishtda shohona chodirlar tikildi, shahzodalar, kelinlarining har biriga xos chodir... E-e, u chog'lar o'tdiketdi misoli bir ertak, qaytmas bir tush, deyman o'ylasam, Kamina u zotning panohida bir chopqir yigit edim, hamisha xoqonga posbonlik qilurdim.

(Davomi bor).

ISHONCH TILDA EMAS, DILDA BO'LARKAN

Mahallamizda ko'pchilik otam Abduazim boyni hurmat qilishar edi. U kishi dehqonlarga bosh-qosh bo'lib, ish bilan ta'minlaganlar. Keyinchalik savdo do'konlariga rahbarlik qilganlar. Otam, jumladan, ularning otasi bo'lmish buvam ham yordam so'rab kelgan kishilarni quruq qaytarishmagan. Biror bir xat hujjatsiz ishonch bilan turli ashyolarni nasiyaga berib yuborganlariga o'zim guvoh bo'lganman. O'rmonga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonarkan. «Senlar boy avlodisan, dushmansan», degan tamg'a bilan ko'plab yurtdoshlarimiz qatori

yaqinlarimning juda ko'pchiligi quloq sifatida Ukraina cho'llariga surgun qilindi. Bu yerda, yurtimizning faxri bo'lgan qator kishilar, ba'zilarining oila a'zolari, bolalari og'ir sharoitda, barakda yashashar edi. Qo'lansa hid, ifloslikdan ko'ngling ayniydi. Barchaga ko'rsatilgan ishni bajarish majburiy. Og'ir musibat, qiyinchiliklar xalqimiz irodasini buka olmadi.

Ibrat

BILIMDONLARGA ERGASHING

Turmush o'rtog'im dunyoqarashi keng o'qimishli inson bo'lib, Ichki ishlarlari xizmatida ishlagan edi. Kasbga oid qiyinchiliklar u kishining sog'lig'iga putur yetkazib, bevaqt olamdan ko'z yumdilar. Barcha qiyinchiliklarni yengib, bir o'g'lim va ikki qizimni o'qitib, kasb egasi qilib tarbiyaladim. Avlodlarimning ilm sari, yangilik sari intilishini, hech qachon o'z e'tiqodlaridan qaytmasdan yashaganlarini

«Esimda, suronli urush yillarida, qishning ayozli kunlarida uylarimizga aravalarda ko'sak olib kelishardi. Kechasi bilan ko'sakdan paxtani ajratib chiqamiz. Onam, opalarimni uyqusizlik, to'yib ovqat yemaslikdan ranglari za'faron. Maktabni tugatar-tugatmas ishlashga majbur bo'ldim. Dastlab pilla zavodida, so'ngra to'qimachilik kombinatida ishladim. Qornimiz nonga, ustimiz kiyimga yolchimasdi. Eh-he, urush yillarida qancha qiyinchiliklarni ko'rmadik?! O'sha davrlarni eslasam hozir qanday ajoyib davrda, emin-erkin yashayotganimizdan, xalqimiz tinch-farovon hayot kechirayotganligidan quvonib ketaman», deya xotirlaydi 82 bahorni qarshilayotgan Parohat aya.

ASLO KAM BO'LMANG

Dilingda ishonching bo'lsa, haqiqat albatta qaror toparkan.

ko'rib ulg'ayganim bois o'nlab nevaralarim, evaralarimni ham o'qish va ishlaridan xabardor

bo'lib tergap ham qo'yaman. U l a r g a hamisha bir maqolni eslatib turaman. «Igna bilan quduq qazish» bu oson ish emas. O'gitlarimga quloq solishadi. H a m m a s i birdek yaxshi o'qishga intilishadi. A y n i q s a ,

nabiram Sunnatillaning maktabdan xursand holda qator-qator beshlar qo'yilgan kundaligi solingan sumkasini yelkasiga osib, yugurib kelishidan ko'nglim tog'dek ko'tarilardi. Bola boshdan, deganlaridek shu nabiramga mehrim ham boshqacha, kamsuqumligi, o'zini tuta bilishidan xursand bo'lardim.

Evaram Kamolaxonni qo'llarimga olganimda, chaqnoq ko'zlariga qarab shu kunlarga yetkazganingga shukur deyman.

Barcha bolajonlarimni urush nimaligini bilmay, o'z otalarining bag'irlarida yayrab voyaga yetishini

i s t a y m a n . M u s t a q i l yurtimizda siz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda katta. O'z ustida ishlagan, harakat qilgan kishi kam bo'lmaydi. Ba'zida uchrab turadigan kamchiliklarni aql-idrok, sabr-toqat bilan hamjihatlik asosida hal qilsa bo'ladi.

Iloyim biz ko'rgan tashvishlar boshingizga tushmasin. Gullab-yashnayotgan Vatanda yashayotganingizdan g'ururlanib, mehnat qilsangiz, intilsangiz aslo kam bo'lmaysiz.

Mohinur SAYFULLO
qizi yozib oldi.



Insoniyat XXI asrga o'zining erishgan yutuqlari bilan birgalikda eski asrdan meros bo'lib qolgan bir qator muammolar bilan kirib keldi. Ana shunday muammolardan biri qochoqlar muammosi bo'lib, butun jahon ommasini larzaga solmoqda.

Ayni paytda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yilga qadar bo'lgan ma'lumotlariga qaraganda bu xalqaro tashkilot 50 milliondan ortiq kishiga moddiy yordam ko'rsatib kelmoqda, aniqroq qilib aytadigan bo'lsa ana shu beg'araz yordamni BMTning Qochoqlar Ishlari Bo'yicha Oliy Komissariyati Boshqarmasi ko'rsatgan. Yuqoridagi ko'rsatkichni 35-40 foizini 12 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar tashkil qilsa, umumiy ko'rsatkichning deyarli teng yarmini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi. Afrika qita'sida 57 foizini 18 yoshgacha bo'lgan ota-onalardan, uy-joylaridan mahrum bo'lgan bolalardan iborat. Har bir uy-joyidan mahrum bo'lgan odam tabiiyki vaqtinchalik yashash joyi, oziq - ovqat, tibbiy yordam olishga majbur bo'lsa, bolalarda esa ana shu ehtiyojlardan tashqari

umumiy ta'lim olish, ularning tarbiyasi kabilar juda muhimdir. Bunday yordamlarni tashkil qilish, uni tartibga solish bir qancha xalqaro huquqiy hujjatlar 1989 yildagi Bolalar huquqi to'g'risidagi Konvensiya va 1951

QOCHOQLAR

yildagi qochoqlar to'g'risidagi Konvensiyalar bilan belgilanib qo'yilgan.

BMTning qochoqlar ishlari bo'yicha oliy komissariyat boshqarmasi BMTning boshqa muassasalari bilan, xalqaro va nohukumat tashkilotlar bilan chambarchas hamkorlik qilmoqda. Buning natijasi o'laroq, 1994 yilda ruandalik 67 ta bolani o'z oilalariga qaytishlariga erishildi.

BMTning QIBOKB o'zining qochoq bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagi asosiy holatlarga e'tibor qaratadi:

- o'z oilalaridan ajralgan bolalarni, oilalari bag'riga qaytarishga yordam berish zarurati;

- ularni harbiy xizmatga yollash oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni qabul qilish hamda ularni

shon-sharafini tiklash va qayta birlashtirish;

- keng qamrovli umumiy ta'lim olishni ta'minlash;
- ko'p hollarda e'tibordan chetda qolayotgan qochoqlar guruhlarini

BOLALAR


ayniqsa, o'smir qochoqlarning huquq va ehtiyojlariga e'tibor qaratish zarurati.


Shunday imkoniyatlar izlanayotgan bo'lsa-da, hamon yuqorida qayd qilib o'tilgan 25 mln. Qochoq bolalarning atigi, 10 millioniga BMTning QIBOKB o'z yordamini ko'rsatgan, xolos. So'nggi o'n yillik ma'lumotlarga nazar tashlansa, ana shu davrdagi harbiy nizolar oqibatida ikki milliondan ortiq bolalar olamdan ko'z yumgan va olti millioni esa turli xil jarohatlar olib, mayib-majruh bo'lib qolishgan. Yana bir millionga yaqini yetim qolishgan.

Qochoqlar lagerlarida esa SPID kasalligidan to'rt millionta bola vafot etgan. Yana 13 millioni esa yetim bo'lib qolishgan. Undan tashqari, bolalardan harbiy maqsadlarda foydalanilmoqda. Ko'rinib turibdiki, jahondagi 90 dan ortiq mamlakatlarda harbiylar tomonidan o'rnatilgan turli xildagi

minalardan bolalar aziyat chekib, xavf ostida yashab kelayotgan bir davrda biz o'zbekistonliklarning yurtimizdagi bolalarga e'tibori ijobiy. Qolaversa, bu yil «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilingan. Bu degani yurtimizda Afrika va boshqa ayrim ocharchilikda aziyat chekayotgan odamlar va yosh bolalarning kuni ertaga bolalarimizni ham boshiga tushmasligi yo'lidagi yana bir qadam desak bo'ladi. Qolaversa, xalqimiz o'z qarindoshi, qo'shnisi yoki hamshahari och qolganda yoki boshiga kulfat tushganda imkoniyati yo'q joydan ham yordam qo'lini cho'zib kelgan. Undan tashqari, BMT qabul qilayotgan g'amxo'rlik chora-tadbirlari bizning nafaqat bu «Mehr va muruvvat yili»da, balki butun umr yashash mazmunimiz bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Abdumannob AKBAROV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2-kurs magistri.





Aziz bolajonlar, 21 aprel kuni akrobatlarning O'zbekiston birinchiligi musobaqalari boshlanganidan xabaringiz bor.

-Musobaqalarda ishtirok etish uchun Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Jizzax, Xorazm, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridan, qo'yingchi, yurtimizning barcha go'shalaridan yosh sportchilarni taklif qildik,- deydi akrobatchilar terma jamoasi bosh murabbiyi Rafiq Shoipov.- Yurtimizda iqtidorli sportchilarning ko'pligi biz murabbiylarni juda xursand qildi. 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar uchun bunday musobaqalarda qatnashish juda foydali bo'ladi. Bo'lajak sportchilar o'zaro tajriba almashib, mahoratlarini oshira boradilar.

«Paxtakor» stadioni yonginasida joylashgan «Yoshlik sport arenasi»da bayram nafasi kezib yuribdi. Musobaqalarni tomosha qilishga juda ko'plab


maqsadi g'olib bo'lish... Sport maydoni aslida mardlar maydoni ham deyiladi. Sportning mashaqqati og'ir bo'ladi. Akrobatikani sportning otasi deyishadi. Hozirgi kunda 60 nafardan ko'proq shogirdlarim bor. Ular orasida umidli sportchilarimiz ham talaygina. Eng yosh shogirdlarimdan biri Muhsin Davlatov ana shunday kelajagi bor sportchilar sirasiga kiradi...

Bolalar orasidan Muhsinjonni izlayman. Bo'yi pastroq, jussasi ham uncha katta bo'lmagan Muhsinjon salom berib, yonimga keldi.

-Muhsinjon, murabbiyngiz sizni zo'r sportchi bo'ladi, deyaptilar. Keling, tanishib olaylik.

-Men Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 2- o'rta maktabning 2- sinf o'quvchisiman. 6 yoshimdan sport zaliga kelganman. Akrobatik mashqlardan egiluvchanlik, yakkakurash va ikkilik, to'rtlik va

Kelajak qanotlari



yu, lekin baribir qishlog'imiz odamlari boshqachada, juda samimiy, oqibatli...

Musobaqalarimiz yana uch kun davom etarkan. Uyimga, jonajon qishlog'imga yorug' yuz bilan, 1-o'rinni egallab qaytishni niyat qilyapman...

Musobaqalar juda qizg'in davom etardi. Tomoshabinlarning olqishlari yosh sportchilarni faqat g'alabaga undardi.

Yaqinda poytaxtning yosh akrobatlar terma jamoasi Karaganda va Pavlodarda bo'lib o'tgan turnir musobaqalarida ishtirok etib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritib qaytishdi. May oyining boshlarida esa ularni Fransiyada bo'lib o'tadigan yana bir nufuzli musobaqa kutmoqda.

Omad sizga, yosh akrobatlar!

MUHSINJON NIMA DEYDI?

muxlislar yig'ilishgan. Shogirdlarining har bir harakatlarini diqqat va hayajon bilan kuzatib turgan andijonlik 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabining murabbiyi Abdulaziz Turg'unovni suhbatga chorlayman:

-Musobaqaga nechta shogirdingizni olib keldingiz?

-Biz poytaxtga birinchi marta yosh sportchilarni olib keldik. 18 nafar akrobatchi shogirdlarimning

shpagat usullarini yoqtiraman. Ikki yildan buyon ustozlarimdan ancha-muncha mashqlarni o'rgandim. Tuman, viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda birinchi bo'ldim. O'rtoqlarim Adham, Dilmurod, Eldor va boshqalar ham sportni qadrlashadi. Biz qishloqdagi shart- sharoitlardan sira ham nolimaymiz. Qishlog'imizdan chiqqanimizga endigina bir kun bo'ldi-yu, uyimizni, onalarimiz tandirda yopadigan nonimizni sog'inib qoldik. Toshkent ham juda yoqdi-



yildan boshlab yurtimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va modeli»ga muvofiq o'quvchi yoshlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirish maqsadida sport musobaqalarining uch bo'g'inli yagona tizimi joriy qilindi. «Universiada»,

yoshlarini sport bilan muntazam shug'ullana olishiga yaxshi imkoniyat yaratibgina qolmay, iqtidorli sportchilar nomlarini «kashf» etib bormoqda. Ikki yildirki, bu sport musobaqalari sabab umidli, iqtidorli sportchi yoshlar va millionlab o'g'il- qizlar sport olamiga dadil, qat'iyat bilan kirib kelyapdilar. Har uch yilda o'tkazilishi an'anaga




Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq yurtimizda sog'lom avlod tarbiyasiga muhim e'tibor qaratildi. Maktab o'quvchilari o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish bu boradagi asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. 1999

SOG'LOM FARZAND - YURT BOYLIGI

«Barkamol avlod» va «Umid nihollari» kabi sport musobaqalari mamlakatimiz

aylanib borayotgan ushbu musobaqalar maktab, tuman va viloyat bosqichlari tartibida amalga oshiriladi.

19 aprel kuni start olgan Respublika bosqichining final o'yinlari 20 maygacha davom etadi. Shu kunlarda Namangan shahrida (o'smirlar o'rtasida) voleypol, Buxoroda basketbol, Gulistonda (qizlar o'rtasida) qo'l to'pi va Nukusda (o'smirlar o'rtasida) shaxmat bo'yicha bellashuvlar bo'lib o'tmoqda. Barkamol avlodning jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan «Umid nihollari» farzandlarimiz mahoratini sinovdan o'tkazibgina qolmay, ular qalbida halollik, maqsad yo'lida intiluvchanlik va do'stona tuyg'ularni shakllantirmoqda.



Ma'mura MADRAHIMOVA.





BIR QUCHOQ CHUCHMOMA

Bahor. Birgina shu so'zning o'zidayoq butun vujudingizni yoqimli tuyg'u qamrab oladi. Beixtiyor kiprigingga ingan shabboda ko'zlaringga nur ato etib erkalaydi, yuzlaringni yangi chiqqan maysadek siypalab, atirgul yanglig' yai-yal yondiradi. Bu ajib bahsni sezishning o'zi gash!i. Shunday emasmi... Yoshlikdan qolgan bu harorat hamon bepoyon dalalarga, salobatli tog' bag'riga chorlaydi.

Yaxshi niyat yarim mol degani rost ekan.

... Mana, Olmos opa, Nodiraxon va O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi maslahatchisi Rustam Musulmon bilan hamkorlikda Habib Sa'dullaning 60 yillik tavalludiga oshiqamiz. Savlat to'kib turgan o'rkach-o'rkach tog'lar, qoyalar dovonni kengaytirish maqsadida yangi o'yilgan tog' yonbag'ridagi katta-kichik, rang-barang toshlardan hayratlanasan kishi. Tabiat mo'jizasini ko'ringki, tikka o'yilgan tog' oralig'i qatlam-qatlam terilgan musulmon g'ishtga o'xshaydi. Dam pishirilgan g'isht rangidagi tizmadan o'tsang, ko'p o'tmay, kul rang, surma rang qatlamlarga duch kelasan. Tog' bag'ri ham inson vujudi kabi zamonalar, davru-davronlar qatiga o'xsharkan, nazdimda...

Shiddat bilan yelib ketayotgan yengil mashinadan cho'qqilar orasidagi ukpardek oppoq bulutlarning suzib o'tishi, ko'pirib oqayotgan sharsharalar, jarliklar-u, qiyaliklardan gurkirab turgan ko'mko'k archalarning ko'rinishidan yashash ishtiyoqingni oshiradi.

Bu muqaddas yo'l Olmos opa, Nodiraxonlar uchun qanchalik qadrdon ekanligini sezib olish qiyin emas...

Men ham G'afur G'ulom bobomizni televizor orqali Mirtemir, Oybek, Maqsud Shayxzoda bilan qurgan suhbatlarini ko'z o'ngimga keltirdim.

Rahmatlik Safar Barno bilan G'afur akaning 100 yillik tavalludini

qanday nishonlashimizni maslahatlashib turardik. Chunki bu ulug' zot ham bolalarni jon-dilidan sevardi. Men hamisha dars vaqtida bolalarga:

*A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi,-*

degan muqaddas shiori bilan ish boshlardim. Bu tabarruk inson ruhini shod etish maqsadida ko'pgina rejalarimiz bor edi. Alam qilarkan. Birga-birga G'afur G'ulom nomini tavob etib, o'sha inson kabi obro' topish, el-yurt nazariga tushishdek baxtga sazovor bo'lishini ko'rgim

keladi. G'afur G'ulom mukofotining laureati Safar Barno zimmamizdagi qarzni yolg'iz o'zimga topshirib ketdilar, chog'i. Shoirga umr yo'ldoshi bo'lish baxti ham shundan bo'lsa kerak...

Xotiralar davom etardi. O'tkir Rashid haqidagi esdaliklarini so'zlayotgan Nodiraxon:

-Qachonlardan beri bu yo'llardan o'tmagandim. Boshqatdan yosharib qolgandekman.

-Men uchun bu yo'llar- hayotim, taqdirim, baxtim... Ayam, dadam bizni tabiatni sevishtga, kishilardan mehrni ayamaslikka o'rgatishgan. Dadamning 70 yillik tavalludini nishonlashga Safar ham borgan edi. O'talarini eslab ketayotgan hamrohlarimga havasim keldi shekilli, men ham farzandlarim otasi bilan ruhan suhbatlashib ketardim.

Uning so'zlamochi bo'lgan issiq nafasi quloqlarimda shundoqqina sezilib turardi:

-Ana, ko'rdingmi,-deb shivirladi, -endi o'zing mensiz G'afur otaning 100 yilligini nishonlaysan. Biz ikkimiz bu tomondan tomosha qilib turamiz...

Ko'zlarimdan oqayotgan sog'inch yoshlarini artishga andisha qilaman. Farzandlarimiz entikib-entikib, qo'msab, o'talarini sog'inishar ekan-da.

Mashina bir silkindi. Yaxshi bahona bo'ldi-yu, yuzlarimni artib oldim. Haydovchi qarshisidagi oynaga razm soldim. Biroz ko'zlarim qizaribdi. Hech kim sezmedi.

-Ha, Malikaxon, jim ketayapsiz,- sezgirlik bilan so'radi Olmos opa.

-Shunday o'zim, yo'ldagi bolalar qo'lida ko'rgan tog' lolasi, chuchmomolarga havasim kelyapti.

-Ha, bahor ta'sir qilibdi-da.

Rustam Musulmon hazil-mutoyibalari bilan hammamizni kuldirdi. Mening xayolimda bir quchoq chuchmomoni ushlab turgan bolakay. Oldinda Normurod Narzullayev, Omon Muxtor, Toshpo'lat Ahad, Hosiyat Bobomurodova, Ahmadjon Meliboyev, Ahmadjon Toshxo'jayev va boshqa juda ko'p mehmonlar

turnaqator bo'lishib, Namangan viloyatidagi Adabiyot kunlariga, so'ng muhabbat kuychisi Habib Sa'dulla visoliga oshiqayamiz.

Yo'llardagi tog' bag'ridan chuchmomozor, lolazor ko'rinarmin, deb intiq boqaman. Ammo hali vaqt biroz erta edi.

-Chuchmomo ham bahor elchisi-da, -so'z qotdi Nodiraxon.

Chuchmomo mening hayotimda alohida o'ringa ega. Ehtimol, taqdirimga ham sababchi bo'lgandir.

Hamrohlarim ajab tabassum qilishdi.

Yo'l yiroq. Biz Pop tumanidan o'ta boshladik. Olmos opamiz yana dadalarini she'rlaridan misra keltiradilar:

*Oilada muhabbat tuzdan oldin turadi,
O'sma ekan otaman, qoshing qaro
bo'lsin deb.*

*Chunki qosh degani ko'zdan baland turadi,
Boshingga yoqqan yomg'ir, ko'zingga
tushmasin deb.*

-Men ham G'afur otamizga bag'ishlangan she'r yozgandim. U paytda Nizomiy nomidagi Pedagogika Oliygo'ndida o'qirdim. Ustozimiz Maqsud Shayxzoda G'afur G'ulom tavalludining 60 yilligi nishonlanishini aytdilar. Axir shunday ulug' zotni dargohimizda ko'ramiz. Uning qadamlari yetgan joylarda biz ham yuramiz.

Ustozimizga she'rimni ko'rsatdim. Yubiley komissiyasi raisi O'tkir Rashid edilar. Ustozim bilan O'tkir aka huzuriga kirdik.

-Yaxshi-yu, ammo tabriklovchilar ko'p-da.

-Bu mening eng shirin shogirdlarimdan. Yo'q desang, xafa bo'laman. Maqsud Shayxzodaning so'zlari ijobat bo'ldi...

Sahnaga G'afur G'ulom boshchiligida uning safdoshlari kirib kelishdi.

Zal talaba va boshqa ixlosmandlar bilan to'lib-toshib ketgan. Hamma qatori menga ham so'z berildi. Shunday buyuklar orasida she'r o'qiyman, yuragim potirlaydi. Ovozim titrab, ifodali o'qiy olmasligimdan xavotirdaman.

*.....
Gagarin akamdek men ham,
Keng fazolarga uchay.
Yulduzlar osmonida kezib,
Gullar terib Sizga tutay.*

Shunda gulduros qarsaklardan «Har tugul o'qishni uddalabman» deb xotirjam bo'ldim.

-Menga qara, qizim.

Nahotki...Biroz cho'chibmi, qandaydir tushunarsiz holatda kafedradan tushib, yaqinlashdim.

-She'ringni ber-chi.

-Xo'p.

Qo'limdagi bir varaq qog'ozni

G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligiga

uzatdim.

G'afur aka ro'parasidagi guldonda turgan chuchmomoni yarmini olib, menga uzatdilar.

Hayajondan qizarib ketdim. Otamiz qo'llariga mikrofonni olib:

-Oting Malika ekan. Duo qilaman. Malikalardek baxt ato qilsin. Ana shu chuchmomoni zaldagilar guvohligida, do'stlarim oldida senga beryapman.

-Rahmat! Rahmat ustoz!

-Ammo bir topshiriqni zimmangga yuklayman.

-Bo'pti, -debman quvonib.

-Men 100 yoshga to'lgan kunim xuddi shu chuchmomoni o'zimga keltirib berasan.

-Bo'pti, domlajon!

Talabalik kayfiyati bilan quvonib pastga tushdim. Sevinib ketganimdan sakrab-sakrab qo'limdagi chuchmomoni baland ko'rganimcha chir-chir aylana-aylana joyimda o'tirdim. Chuchmomo donalaridan kursdoshlarim, atrofimdagilarga uzatdim. Quvonchlarimni baham ko'rdim. O'tirsam, (Suxandon Nasiba Ibrohimovaning ukasi bilan o'qirdim) Yo'ldosh, Adham, Mirkamol, Nuriddin aka «Zo'r» deyishdi. Kimdir:

-Voy bo'-o', osmonda ucharmish...

-Yulduzlar osmonida kezarmish...

-Osmon to'la yulduz emas, gulzor ekan-da.

-Ha, endi bizning Malikai dilozorimiz o'qishga «progul» qilib, osmonda uchib yuradi. Quchoq-quchoq gul teradi.

-Hey, menga qara, -yelkamga turti Murod, - hech qachon qiz bolayam osmonda ucharkanmi?!

Ozoda, Nazira, Karima bilan bunday hazil-mutoyibalarga e'tibor bermasdik. Ozoda bo'sh kelmadi:

-Nima qilibdi, uchsa-uchaveradi-da.

...Ana shu voqealarga ham 40 yil o'tibdi. 40 yil-a... Bu orada rahmatlik Safar Barno ham, G'afur bobomizdek roppa-rosa 63 yoshida bu olamni tark etdi.

Buni qarangi, Alisher Navoiy, G'afur G'ulom, Safar Barno aynan shu yoshida vafot etdilar.

...Men o'sha G'afur G'ulomning qo'lidan olgan chuchmomoni asray olmadim. Ota-onam aytganlaridek, quritib qo'ysam bo'larkan. Menga ishonib topshirilgan omonat edi bu chuchmomolar.

Endi qarzdorman. Safar aka bilan ham bora olmayman. U kishi ham 100 yoshga kirishni orzu qilardilar. Ishonardik shunga...

Qarzdorman, bir quchoq chuchmomo bilan Alisher Navoiy, G'afur G'ulom, Safar Barno ruhlarini shod etish nasib etarmikin...

Malika BARNOYEVA.

O'zbekiston xalq shoiri, o'zbek elining suyuqli farzandi Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Yusuf ota bilan Enaxon aya ikki o'g'il va uch qiz ichida Muhammadjonni boshqacha suyushardi. Uning ko'nglida adabiyotga bo'lgan havasning uyg'inishida Marhamatda «otin oyi» deb tanilgan, o'nlab dostonlarni yoddan bilgan buvisi Tursunxon enaning hissasi katta.

Muhammad Yusuf o'rta maktabni muvaffaqiyatli bitirgandan so'ng (hozir bu maktab shoir nomi bilan ataladi), 1973 yil Respublika rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi. Institutni tamomlab, 1978-80 yillari harbiy xizmatni o'tab qaytadi. Mana shu yillar shoir uchun dunyoni va

orqali unutilayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab-avaylashga chaqiradi.

Shoir murojaat etadigan obrazlarning aksariyati o'zbekona, oddiy, ayni paytda munis va qadrdon. Qaldirg'och, lolaqizg'aldoq, rayhon, yalpiz, toychoq kabi timsollar zamirida ham shu tuproq, shu yurt, shu Vatanning azizligi, mo'tabarligi aks etadi.

«Muhabbat», «Ona», «Vatan» mavzulari Muhammad Yusuf she'riyatining asosiy uchta o'q ildizidir. O'qib ko'ring:

Oh, mening ortimdan ovora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rgan yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam.

O'ZBEKNING ERKA SHOIRI

o'zligini anglash yo'lida murakkab tajriba davri bo'ldi. Bir yonda balandparvoz alvon shiorlaru puch g'oyalar... bir yonda xor-zor va kamsitilgan millatning ahvoli shoirning yuragini ayovsiz o'rtar edi. Shu tariqa shoirning keng qamrovli ijodi va ijtimoiy faoliyati boshlanadi.

U Respublika Kitobxonlar jamiyatida muharrir (1980-82), «Toshkent oqshomi» gazetasida muxbir (1982-86), G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyatida muharrir (1986-92), «O'zbekiston ovozi» gazetasida katta muharrir (1992-93), Respublika Axborot Agentligida bosh muharrir o'rinbosari, «Navro'z» xayriya jamg'armasida tashkiliy ishlar va xatlar bo'limi boshlig'i (1993-95), «Vatan» gazetasi tahririyatida maxsus muxbir, «Tafakkur» jurnalida bo'lim boshlig'i (1995-96), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1996-97), 1997 yildan umrining oxirgi kunlariga qadar mazkur uyushma raisining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimlarida ishlagan.

Shu bilan birga shoir 1996-97 yillarda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi Akademiyasida o'qigan. 2000 yil Oliy Majlisga deputat etib saylangan.

Tom ma'noda xalq shoiri bo'lgan Muhammad Yusufning o'ziga xosligi nimada edi? Nega uni butun boshli el suyuqli farzandim deb sevib ardoqladi va hamon e'zozlab kelmoqda?

Muhammad Yusuf she'rlarining mavzui hayotdagi muammolardan, odamlarning iztiroblari, dard-u g'amlari, orzu-armonlaridan olinadi. She'rlarining badiiy ifodasi xalqoni, sodda. Shuning uchun uni o'quvchi qanday bo'lsa shu holicha qabul qiladi. Aksariyat she'rlarida kitobxonni mushohadaga undovchi sodda falsafa, o'ziga xos jozibali ohang bor.

Bir qarashda oddiy tuyuluvchi «Kokiling kim kesdi, yor?», «Mehr qolur», «Do'ppi» singari ko'plab she'rlari

Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusi alohida o'rin tutadi. Onaga, qadrdon uyga, suyuqli yorga bo'lgan tuyg'ular ulg'ayib, ona yurtga bo'lgan ulkan muhabbatga aylanadi. Ona yurtni yurakdan maromiga yetkazib kuylay olgan ijodkorgina chin shoir darajasiga ko'tariladi. Aslida, Vatan haqida qalam tebratmagan shoir yo'q. Ammo har biri o'z miqyosida kuylaydi, o'z mahorati darajasida talqin etadi.

Shoirning darajasi xalq tili va dilidagi fikrni yorqin ifoda eta olishida ham ko'rinadi. Shu ma'noda Muhammad Yusufning istiqolga baxshida she'r-qo'shiqlari ommaviy alyorga aylanib, stadionlarda, bayram-to'ylarda jo'rovov aylangan millat ruhiyatida favqulodda hodisa bo'ldi.

Yodingizda bo'lsa, 1999 yil 16 fevral voqealaridan qattiq ta'sirlangan shoir «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» deb baralla ayta oldi.

Uning Vatan mavzusidagi she'rlari, ayniqsa, mustabid tuzum davrida armonli, ezg'in bo'lgan. U yuragidagi bu hissiyotlarini o'sha davrda ham berkitib o'tirmadi, o'z halovatini xalq taqdiridan ustun qo'ymadi. Jumladan, «O'zbeklar ishi» siyosati avjiga chiqqan yillari:

Uying kuydi, o'zbek,
Sho'ring quridi.
Poygaging quridi,
To'ring quridi,-

deb yozdi. Bu misralarda Vatanning kuygan, o'rtangan shoir o'g'lining uyg'iq qalbi aks etadi.



Hamisha uyg'iq xotira

Stalin shaxsiga sig'inishning ko'lankasi butunlay ketmay turib:

Rutubatli shimol o'rmonlarida
Qayinlar ho'ngrab quyoshni uyg'otar.
Qarang, Cho'lponingiz so'nggi makonida
Beqasam choponin yopinib yotar.

Yotar alp qomalli bahodirlar qator,
Akmallar, Qodirlar, Shokirlar yotar,
Yotar Fayzullolar, yotar Ahmadlar,
Xudo rahmat qilgur, xudo rahmatlar,-
degan satrlarni o'z ichiga olgan «Qora quyosh» dostonini bitdi.

Yana bir turkum she'rlarida «bo'yi g'o'zaga yetmagan birinchi sinf bolalari»ning umri paxta dalalarida sargardon o'tayotganligidan tortib, XX asr ofati - atom bombalar, qiruvchi samolyotlar vahshatigacha qamrab olingan.

Nahoringda paxta, shomingda paxta,
Ayvoningda paxta, tomingda paxta,
Oqar og'u bo'lib qoningda paxta,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?
Rizq-u ro'zing sochib aylanan falak,
Sen esa dalangdan topolmay halak-
Bolangga bergali bitta handalak,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?

Kosmos asri, kompyuter asri deb ko'klarga ko'tarilgan zamonda «Farhodlar videoga mo'ltirab» o'sayotganini, «Shirinlar bir-birin kokilin kesayotgani»ni hamda «Navoiyning vorislari o'z bobolarining tilini tushunmay o'tayotgani»ni achchiq iztirob bilan qalamga oldi.

Muhammad Yusuf har bir davr fojiasini hayiqmay yozdi. Afg'on urushi musibatlarini shunday mahzun satrlarda ifoda qildi:

Yigit yo'li bo'lmaydi-ku xatarsiz,
Biz o'ylardik, bir kun kelib qaytarsiz.
Temir tobut ichra qaqqashab yotarsiz,
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar.

Tangriga shukrlar bo'lsinki, unga xalqimiz erkini, istiqololini ko'rish nasib etdi. Uning xalqni ko'rishday orzusi ushaldi. Istiqol yillari shoir ijodining gullab-yashnagan pallasi deb atasa bo'ladi. Mustaqillik kunlari nishonlanmish bayram tantanalarida yangragan «Xalq bo'l, elim!», «O'zingdan qo'ymasin, xalqim!», «Ulug'imsan, Vatanim!» kabi qo'shiqlari shoirning yurak izhori sifatida olam uzra baralla jarangladi.

Muhammad Yusuf ona xalqini qanday sevgan bo'lsa, undan ham shunday javob oldi. U katta-yu kichikning mehrini birday qozonish baxtiga musharraf bo'ldi. Toki bu dunyoda o'zbek degan millat bor ekan, shoirning xotirasi xalqimiz qalbida barhayot yashaydi.

Nosirjon JO'RAYEV.

Malika DAVLATOVA-Toshkent tumanidagi 33 - umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-«V» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shuningdek, adabiyotga, san'atga ishtiyoqi baland. She'rlar mashq qiladi, qo'shiq kuylab, raqsga tushishni yoqtiradi.

-Malika, she'r yozish qiyinmi?

-Avvallari, ya'ni 3-sinfda o'qib yurgan kezlrimda she'rni osongina yozib tashladim. O'sha she'rlarimni o'qib qolsam, kulgim qistaydi. Ko'zimni nima ko'rinsa, yozavergan ekanmandam... Hozir esa she'r yozmoqchi bo'lsam, anchagina izlanaman, misralarimni takror-takror o'qib, yoqmagan joylarini qayta ishlayman. Ko'nglim to'lmasa, yirtib tashlagan paytlarim ham bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, she'r yozishning o'zi bo'lmaydi.

-Bu iqtidor sizga kimdan o'tgan deb o'ylaysiz?

-Bolaligimda dugonalarim kabi o'yinqaroq emasdum. Darsxonamga kirib olib, allanimalar yozgim

TOG'AMNING DAFTARI

kelaverardi. Bir kuni xonamda uzoq qolib ketganimdan xavotirlangan oyim yonimga kirib, nima qilayotganim bilan qiziqdilar. Men onamga she'rlar daftarimni ko'rsatdim, ulardan bir-ikkitasini o'qib ham berdim. Shunda oyim xursand bo'lib, meni quchoqlab oldilar. Qarasam, ko'zlarida yosh halqalanyapti. Sababini so'rasam, indamay chiqib ketdilar-da, birozdan so'ng qo'llarida bir daftar bilan kirib keldilar:

-Ona qizim, bu tog'angning she'rlar daftarini. Uni uzoq yillardan buyon saqlab yurgandim. Sendagi she'riyatga bo'lgan ishtiyoqni ko'rib, uni senga berishga qaror qildim,- dedilar. Keyin ayni navqiron yoshida bevaqt olamdan o'tgan tog'am G'ayratjon Xoliqov haqida gapirib berdilar. Ma'lum bo'lishicha, tog'am she'riyat ixlosmandi bo'lgan ekanlar. Maktabda o'qib yurgan paytlarida «Tong yulduzi» (avvalgi «Lenin uchquni») gazetasi qoshidagi adabiy to'garakka qatnab, ijod qilishni o'rganibdilar. Ko'plab she'riy mashqlari «Tong yulduzi», «Gulxan» hamda «G'uncha» jurnallarida chop etilgan ekan. Afsuski, bevaqt o'lim tufayli shoir bo'lishdek oppoq orzulari ushalmay qolgan ekan. Demak, men tog'amga tortgan ekanmandam...

-«Qiz bolaga qirq hunar ham oz», deyishadi. Yana nimalarga qiziqasiz?

-Ko'p narsalarga qiziqaman. Maktabimiz qoshidagi kimyo, to'quvchilik to'garagiga qatnayman. Qo'shiq kuylashni, raqsga tushishni yoqtiraman. Bir she'rimni o'zim kuyga solishga ham urinib ko'rdim. Yana til o'rganishni xohlayman. Maktabimizda rus tili, chet tili va adabiyot to'garaklari ochilish arafasida. Ochilsa, birinchilardan bo'lib a'zo bo'laman. Mazali taomlar, turli shirinliklar pishirishga qiziqaman.

P a z a n d a l i k sirlarini esa onajonimdan o'rganyapman.



-Bo'sh vaqtingiz ham bo'ladimi?

-Bo'ladi, lekin unchalik ko'p emas. Dugonalarim Muqaddas, Dilbar, Maftuna, Mohiralar bilan o'ynashga har doim ham fursat topavermayman. Lekin ko'chada o'ynashdan ko'ra, biror kitob yoki gazeta o'qishni, biror narsa qoralashni afzal ko'raman. «Tong yulduzi» eng sevimli gazetam. Uning sahifalarida ko'plab she'r va hikoyalar, boshqotirma va aralash testlar chiqishini istardim.

-Malika, kim bo'lmoqchisiz?

-Telejurnalist bo'lishni orzulayman. Buning uchun hozirdanoq o'z ustimda tinmay ishlayapman, adabiy tilda aniq, ravon gapirishni mashq qilyapman.

-Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat. Niyatingizga yeting, dugonajon!

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.

Aziz bolalar! Siz suratda she'rlar muallifi Safar BARNOYEVNI (o'rtada) adabiyotimiz jonkuyarlari- Erkin MALIKOV va Olimjon HAKIMOVlar bilan birga ko'rib turibsiz. Afsuski, endi bunday suratga qayta tushilmaydi... Kechagina tahririyatimizga tez-tez kelib, bolalarga nimalarni yozishimiz-u, ularni nimalarga yo'naltirishimiz haqida yo'l-yo'riqlar beradigan Safar Barnoyevdek aziz inson endi oramizda yo'q. Ammo uning sizlarga atab yozgan she'rlari, doston-u hikoyalari ijodkorga qayta umr bermoqda. Har tong radio va televideniya orqali taraladigan bolalar qo'shiqlari ham o'z ohang-u maqsad va maslagi EZGULIK bo'lib, istiqolga ISHONCH, ertangi kunga intilib yashashga ILHOM bag'ishlaydi.

Ruhingiz shod, oxiratingiz obod bo'lsin, aziz ustoz! She'rlaringizni yodlab, qo'shiqlaringizni kuylab yashar ekanmiz, ortingizdan o'zingizga yog'ilajak olqish-u savoblar qoldirganingizga havas qilamiz.



BOLALARNING OVOZI

Bolalarning ovozi-
Mening ovozim, sozim.
Bolalarning ovozi-
Mening bahorim, yozim.

Bolalarning ovozi-
Ostonam butunligi,
Devorlarning pardozi,
Bortlig'im, ustunligim.

Bolalarning ovozi-
Chalinmasa quloqqa.
Onam ham bo'lmas rozi,
Qurib qolgum butoqday.

Shovullamas bog'-dalam,
Ko'kda chaqilmas chaqin.
Ko'kda yorishmas olam,
Qancha bo'lmasin yaqin.

Bolalarning ovozi-
Fomirlarimga tulash.
Shovqini, erka, nozi,
Bag'rimni qilgan otash.

Bolalarning ovozi-
Soyabon barglarimdir.
Borman deb quloch yozib,
Qurdirgan arklarimdir.

Shundanmi, mening nastim,
Jez ko'zga tashlanadi.
Valanni suyush asli,
Boladan boshlanadi.

ORZU

Kuylasam, lolalar raqs etsa,
Humoga suydirmsam dilimni.
Fog'lar ham jilmayib bosh egsa,
Butbulga sevdirdsa tilimni.

Osmonlar suv sepsa yo'limga,
Shirintlar bol yesa qo'limdan.
Majnunlar sig'insa sevgimga,
Orzular gul eksa ko'nglimga.

O'n sakkiz yoshimda oy bo'lib,
Oyni ham etolsam mahliyo.
Muhabbat gavharin yaratsam,
Olamga taratsam nur-ziyo.

QUTLUG'

(Istiqol mushoirasi)

Filing erkin,
Diling erkin,
So'zing erkinligi qutlug'.
Varatmoqqa qo'ling erkin,
Yo'ling erkinligi qutlug'.

Azaldan qut qadamdursan,
O'zingga qaylganing qutlug',
Jahonda tantli O'zbeksan,
So'zingga qaylganing qutlug'.

Ustoz yodi

NABIRALARIMGA

Hay mening tillolarim,
Fillari burrolarim.
Foylarim-u oylarim,
Sho'xliklarga boylarim.

Sizga nasihat-pandim,
Bor degandek bor bo'ling,
Baring mening dilbandim,
Mudramang, bedor bo'ling.

Foshing deyman, toshing,
Foshganda qirg'oq bo'ling,
Fog' bo'ling, tog'dan oshing,
Fashvishdan yiroq bo'ling.

Dunyoning kam-ko'sli ko'p,
Har tong sizga ko'rmana,
Ostonangiz do'sli ko'p,
Devor buzar ko'rnamak.

Ha, mening tillolarim.
Fillari burrolarim,
Foylarim-u oylarim,
Sho'xliklarga boylarim,

Oylaringa degum bor,
Soz bo'lsin tovushlaring,
Zardan to'qilsin zinhor,
Kiyguvchi kovushlaring.

Fovoningizga tushsin,
Qirg'o'rilgan chitvir soch.
Atrosingizda uchsini,
Bahor qushi-qaldirg'och.

Foylarimga degum bor,
Men deng, dilda or bo'lsin.
Mardlar bo'lar beozor
Minsangiz tulpor bo'lsin.

Baland kelsin qo'lingiz,
Ko'rinsangiz maydonda,
Nur chulg'asin yo'lingiz.
Qolib ketmang ayvonda.

Hay, mening tillolarim,
Fillari burrolarim,
Chaqnab turgan ko'zlarim,
Elga aylar so'zlarim.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Risboy JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
№ 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Nashir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

Toshkent matbaa
kombinatida chop etildi.

Adadi - 35868
Buyurtma № J 000180

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24